

MILLIY SPORT TURI - KURASH ATAMASI BILAN BOG'LIQ BIRLIKLER HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR.

Kenjayeva Sayyora Xudoybergenovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O'zbek va chet tillari kafedrasи o'qituvchisi.

Annotatsiya: Muallif maqolada bugungi kunda mamlakatimizda sport sohasining rivojlanishi ustida to'xtalib, o'zbek sport atamashunosligini rivojlantirish zaruratiga e'tibor qaratgan. Shuningdek, sport o'yinlari, xususan, milliy kurash sport turi atamalarining izohli ma'nosi va qo'llanishi haqida mulohazalari bayon etilgan.

Аннотация. Автор статьи акцентируют внимание на развитии области спорта в нашей стране на сегодняшний день и необходимости развития узбекской спортивной терминологии. Также представлены комментарии к толковательному значению и применению терминов спортивных игр, в частности национальной борьбы.

Kalit so'zlar: sport atamalari, terminologiya, soha rivoji, ilmiy tadqiqotlar, tushuncha va atamalar, milliy kurash, polvon, katta polvon, sport masteri, master sport, sport ustasi.

Ключевые слова: спортивные термины, терминология, развитие сферы, научные исследования, понятия и термины, национальная борьба, борец, старший борец, мастер спорта, мастер спорта, мастер спорта.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmonida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilishi haqida aytib o'tilgan.

Kurash jahoning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega. Faylasuf, tarixshunos olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurash sport turining yoshi kamida 2,5 - 3 ming yildan ortiqligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'zbeklarda qadimdan milliy kurash o'ziga xos va qiziqarli an'ana hisoblangan. Ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida milliy kurash keng rasm bo'lgan, sho'ro davrida ham milliy kurash qadrini yo'qotmagan, to'ylarda, bayramlarda davom etgan. Polvonlar el ichida obro'li bo'lishgan. El ularni faqat kuchi-quvvatiga qarabgina emas, samimiyati, tantiligi, halolligi, mardligi tufayli e'zozlagan.

Kurash sport turi sohasi tushuncha va atamalarini ilmiy o'rganishda ko'plab xorijiy va mamlakatimizning olimlari ishtirok etishgan. Jumladan: Rossiyalik A.T.Brikin, L.V.Bankevich, Shlemin, A.D.Novikov, L.P.Matveyevlarning, mamlakatimizdan R.Ismoilov, A.Norkin, H.Rafiyev, A.Yefimenko, F.Nasridinov, A.Jabborovlarning ilmiy tadqiqotlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Mustaqillik yillarda A.Abdiyev, M.Boboyorov, N.N.G'afforov, M.S.Ayxodjayeva, H.O.Axmedova, I.T.Boltayeva, U.Sh.Salimov, R.Shoniyozirov va boshqalarning ishlari diqqatga sazovor.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat sohasi tushuncha va atamalari sohasida qanchalik ko'p ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilmasin, unda dolzarb muammolarning salmog'i ko'pligi ayon bo'limoqda. Avvalo, har bir sport yo'naliishiga doir atamalarning vujudga kelish manbalarini chuqr tadqiq qilish, atroflicha o'rganish orqali muammolarning yechimlarini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy sport tili sportchilar, sport ommaviy axborot vositalari va oddiy sport muxlislari tomonidan ishlatiladigan turli xil atamalarni o'z ichiga oladi. Har bir sportning o'z termini bor: professional lug'at – jargon so'z va iboralar majmui. Sport tili esa turli xil ijtimoiy va yosh guruhlarning keng ommasi uchun juda tushunarli bo'lган tildir.

O'zbek tilining izohli lug'atida ham sport sohasiga tegishli terminlar mavjud. Jumladan, "kurash" so'zi bilan bog'liq tushunchalar quyidagicha berilgan:

KURASH. I

1. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv. U hozir kurashda raqibini yonboshga olib otgan, lekin raqibi tikka tushib, o'zi yonboshga olingan kishining ahvoliga tushib qoldi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Elmurod sahn o'rtasida to'planishgan yoshlar tomonga ketdi. Bu yerda kurash boshlangan bo'lib, Davlatyor bilan Ma'murjon bel olishmoqda edi. P. Tursun, O'qituvchi.

Kurash(ga) tushmoq Yiqitish yoki g'olib chiqish uchun o'zaro bellashmoq, kurashmoq. U yerda bolalar kurash tushishadi, chillak o'ynashadi. E. Raimov, Ajab qishloq. -Ha, sen gitlerchilar bilan kurash tushgani kelganmiding? – kuldil Bektemir. Oybek, Quyosh qoraymas.

2.Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sportning shunday turi. Milliy kurash. Erkin kurash. Dzyudo kurashi. Barot polvon dunyoda ikki narsani yaxshi ko'rар edi: birinchisi – kurash, ikkinchisi – ashula. M. Ismoiliy, Farg'ona t. o.

3.Sportning biror turi bo'yicha kuch, mahorat, ustunlik ko'rsatish uchun bo'lgan musobaqa. Hozir shaxmat toji uchun kurash bormoqda. Trener menga qo'lqop berayotib: -Mashg'ulot vaqtida ham, haqiqiy kurash vaqtida ham yuragingni saqla, – der edi. I. Rahim, Chin muhabbat.

Kurash so'zning ikkinchi izohida “2.Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sportning shunday turi. Milliy kurash. Erkin kurash. Dzyudo kurashi.” tarzida berilgan bo'lib, kurash so'zining o'zbek milliy kurash sport turi ekanligi keltirib o'tilmagan²⁷.

Qadimiylar xalq musobaqasi olish – kurash san'atining butun qonun-qoidalari xalqimiz tomonidan eng mayda jihatlarigacha batafsil ta'riflangan. Xalq tilida kurash sportiga oid bir qancha atamalar qo'llanilganki, ularni leksik-semantik jihatdan o'rganish hozirgi o'zbek terminologiyasi oldiga qo'yilgan vazifalardan hisoblanadi.

Zamonaviy terminologiya sohasida atamalarni belgilashda nafaqat so'z yoki iboralarni, balki jumlalarni ham ishlatish mumkin. Qadimdan xalqimiz kurash musobaqasi bilan bog'liq shaxs nomlarini ifodalovchi **polvon, katta polvon, sport masteri, master sport, sport ustasi, bakovul, bosh bakovul, talabgor** kabi bir qancha so'z va birikmalardan foydalanishgan. **Polvon** atamasi o'zining ichiga: “sport”, “tur”, “o'yin”, “shaxs”, “jismoniy jihatdan kuchli” kabi ma'nolarni anglatgan. **Polvon** atamasi (f-t) kurash tushadigan sportchi ma'nosini ifodalaydi.

Katta polvon birikmasi ma'lum bir polvonning boshqa polvonlarga nisbatan hurmatga ega ekanligini ifodalagan.

Ma'lum kasb yoki hunarni egallashda o'rgatuvchi shaxs **rahbar, ustoz, usta** deyilsa, sport sohasida belgili yutuqlarga erishgan sportchilarga esa **sport masteri, sport ustasi** degan unvon beriladi. Shuning uchun sport **masteri, master sport, sport ustasi** kabi birliklardan foydalanimilib, ulardan **master sport** birligi rus tiliga oiddir.

Ma'lumki, musobaqa va sport o'yinlarida, shuningdek, kurashda taraflar o'rtasidagi kelishmovchilikni, janjalni sudsiz bartaraf etuvchi, kelishtiruvchi xolis vositachi shaxs hakam – sudya so'zi o'rnida **bakovul, bakovulboshi** qo'llanilgan.

²⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 379.

Bakovul, bakovulboshi so'zlar eskirgan so'zlar bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi²⁸:

Bakovul 1 tar. Podshoh, amir, xon saroyida; ularga atalgan ovqatni totib ko'rvuchi va ovqat tayyorlash ishiga mas'ul mansabdor. 2. eski so'z. Oshpaz

Bakovulboshi esk. Oshpazlar boshlig'i.

Qiyosiy tahlildan anglashiladiki, **bakovul, bakovulboshi** leksemalari o'zbek milliy kurashida hakam ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, bu ma'no "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan o'rinn olmagan.

O'zbek tilida "qur atamasi davra, partiya, gal ma'nolarini ifodalaydi".

"Kurash qoidasida polvonlarning ijobiylar harakati, asosan, "**Halol**", "**Yonbosh**", "**Chala**" atamalari bilan baholanadi".²⁹

"**Halol**" atamasi ikki polvon kurash tushib, biri ikkinchisini mardlarcha yiqitganda hakam yoki tomoshabinlar tomonidan musobaqa, bellashuv g'alaba bilan tugadi yoki olishuv tugadi ma'nosini anglatadi:

Yiqitmoq kuch bilan qulatmoq, ag'darmoq, ag'natmoq va kuch bilan yerga yotqizmoq, kurashda yengmoq, zo'r chiqmoq, ustun chiqmoq ma'nolariga ega.

Kurash sohasida yelkasi yer ko'rdi, yelkasi yerga tegmagan kabi frazeologik birliklar kurashda yiqilgan, doim g'olib chiqqan ma'nolarini ifodalaydi.

Xullas, bu kabi holatlarni sport sohasiga oid ko'pgina atama va birliklarda kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Iskandarova Sh., Shokirova M. "Sport" arxisemali leksemalarning komponent tahlil // O'zbek tili va adabiyoti. 2011, 6-son, 101- bet..

2.Usmonxo'jayev T., Akromov J. va b. Jismoniy tarbiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –Toshkent: "O'qituvchi". 2014, 147-bet.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 379.

4.O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1 jild, 1981. 74 –bet.

5.Boltayeva I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati. "Lesson press".Toshkent. 2020.

²⁸O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1 jild, 1981. 74 –bet

²⁹Usmonxo'jayev T., Akromov J. va b. Jismoniy tarbiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –Toshkent: "O'qituvchi". 2014, 147-bet.